



Navoiy viloyatida kichik tadbirkorlik

(dastlabki ma'lumotlar)

2020-yil yanvar-mart

2020-yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlikning YaHMDagi ulushi 20,9 % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1 000 aholiga 19,0 birlikni tashkil qildi.

2020-yilning yanvar-martida 1 209 ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 36,0 foizga ko'paygan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdoda 501 ta, sanoatda 227 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 157 ta, yashash va ovqatlanishda 86 ta, qurilishda 66 ta, tashish va saqlash 39 tani tashkil etilgan.

2020-yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Savdo
41,4 %



Sanoat
18,8 %



Qishloq, o'rmon
va baliq xo'jaligi
13,0 %



Yashash va
ovqatlanish
7,1 %



Qurilish
5,5 %



Tashish va saqlash
3,2 %

2020-yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari

	O'lchov birligi	2019-y.	2020-y.	(+;-)
Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni	birlikda	9923	15770	5847
Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni	birlikda	889	1209	320
<i>Kichik tadbirkorlikning ulushlari:</i>				
YaHM	%	22,4	20,9	-1,5
Sanoat	%	9,9	8,9	-1,0
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	%	96,4	97,4	1,0
Investitsiya	%	8,6	24,0	15,4
Qurilish	%	74,5	72,7	-1,8
Savdo	%	87,7	90,0	2,3
Xizmatlar	%	62,6	58,7	-3,9
Yuk tashish	%	4,7	4,5	-0,2
Yuk aylanmasi	%	37,2	37,7	0,5
Yo'lovchi tashish	%	85,0	86,0	1,0
Yo'lovchi aylanmasi	%	81,7	81,5	-0,2
Eksport	%	24,8	31,3	6,5
Import	%	45,3	52,3	7,0




2020-yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlikning tarmoqlar bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari, % da




2020-yilning yanvar-martida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha eng ko'pi Navoiy shahrida – 236 ta, Xatirchi tumanida – 217 ta, Karmana tumanida – 171 ta, Qiziltepa tumanida – 137 ta, Zarafshon shahrida – 112 ta, Uchquduq tumanida – 103 ta. Shuningdek, eng past ko'rsatkich Konimex va Tomdi tumalarida – 42 tani tashkil etgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda

	2019-yil yanvar-mart	2020-yil yanvar-mart	(+;-)
Navoiy viloyati	889	1209	320
Navoiy sh.	211	236	25
Zarafshon sh.	77	112	35
<i>tumanlar:</i>			
Karmana	170	171	1
Konimex	38	42	4
Qiziltepa	73	137	64
Navbahor	82	81	-1
Nurota	67	68	1
Tomdi	24	42	18
Uchquduq	54	103	49
Xatirchi	93	217	124



2020-yil yanvar-mart holatiga ko'ra yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, % da




2020-yilning yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jami miqdoridan eng ko'p ulush Navoiy shaharida 19,5 %, Xatirchi tumanida 18,0 %, Karmana tumanida 14,1 %, Qiziltepa tumanida 11,3 %, Zarafshon shahrida 9,3 %, Uchquduq tumanida 8,5 %, Navbahor tumanida 6,7 %, Nurota tumanida 5,6 %, Tomdi tumanida 3,5 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda

	2019-yil yanvar-mart	2020-yil yanvar-mart	(+;-)
Jami	889	1209	320
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	100	157	57
Sanoat	209	227	18
Qurilish	115	66	-49
Savdo	249	501	252
Tashish va saqlash	37	39	2
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	77	86	9
Axborot va aloqa	9	19	10
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	9	16	7
Boshqa faoliyat turlari	84	98	14

Ma'lumot uchun: 2020-yilning yanvar-martida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'p salmog'i, birlikda:




Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, *birlikda*

	2019-yil yanvar-mart	2020-yil yanvar-mart	Farqi (+;-)
Navoiy shahri	211	236	25
Xatirchi tumani	93	217	124
Karmana tumani	170	171	1
Qiziltepa tumani	73	137	64
Zarafshon shahri	77	112	35
Uchquduq tumani	54	103	49
Navbahor tumani	82	81	-1

2020-yilning yanvar-martida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'pi Navoiy shahrida – 236 taga yetdi.




Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, *birlikda*





Navoiy viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1 000 aholiga, birlikda), yanvar-mart holatiga ko'ra*



2020-yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1 000 aholiga, birlikda) hududlar bo'yicha eng ko'p ko'rsatkich Tomdi tumanida - 37,5 birlik, Navoiy shahrida - 25,2 birlik, Karmana tumanida - 23,5 birlik, Uchquduq tumanida - 22,4 birlik, Konimex tumanida - 20,2 birlik, Navbahor tumanida - 18,3 birlik. Qiziltepa tumanida - 17,2 birlik, Nurota tumanida - 17,1 birlik, Zarafshon shahrida - 15,7 birlikni tashkil etgan. Ushbu ko'rsatkich eng past Xatirchi tumanida -13,5 birlikga to'g'ri keldi.

* *Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)*




2020-yilning yanvar-martida hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1 000 aholiga, birlikda)*



* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)




2020-yilning yanvar-martida shahar va tumanlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1 000 aholiga, birlikda)



2020-yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1 000 aholiga, birlikda) tuman va shaharlar bo'yicha eng ko'p ko'rsatkich Tomdi tumanida - 37,5 birlik, Navoiy shahrida - 25,2 birlik, Karmana tumanida - 23,5 birlik, Uchquduq tumanida - 22,4 birlik, Konimex tumanida - 20,2 birlik, Navbahor tumanida - 18,3 birlik, Qiziltepa tumanida esa - 17,2 birlikni tashkil etdi.

Faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1 000 aholiga, birlikda)




Bundan ko'rinib turibdiki, Tomdi tumanida tovar va xizmatlarga bo'lgan talab eng yuqori darajada bo'lgani uchun ham bu tumanda korxonalar soni ko'paygan. Aksincha, Xatirchi tumanida tovar va xizmatlarga bo'lgan talab pastligi uchun ham korxonalar soni o'zgarmagan va eng past darajaga tushib ketdi.

Kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushini pasayish dinamikasi, yanvar - mart holatiga ko'ra, % da


2020-yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 20,9 % ni tashkil qildi. (2019 yilning yanvar - martida 22,4 %).

YaHMning o'tgan yilga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan izohlanadi.





Kichik tadbirkorlikning iqtisodiyot tarmoqlaridagi ulushi (*umumiy hajmiga nisbatan, % da*)



2020-yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlikni hududlar kesimida iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridagi ulushi, (%) da

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar	Investitsiya
Navoiy viloyati	8,9	72,7	58,7	24,0
Navoiy sh.	1,3	92,2	29,7	9,4
Zarafshon sh.	91,5	12,5	68,0	9,7
<i>tumanlar:</i>				
Karmana	33,8	99,6	91,1	87,8
Konimex	21,7	100,0	98,9	24,1
Qiziltepa	87,0	89,9	96,8	57,6
Navbahor	100,0	100,0	98,1	92,7
Nurota	100,0	100,0	95,9	95,0
Tomdi	100,0	100,0	99,3	0,5
Uchquduq	96,6	100,0	98,5	8,9
Xatirchi	99,9	78,9	96,2	95,7


Hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlikning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi eng ko'p.

Sanoatda - Navbahor, Nurota va Tomdi (100,0 %), Xatirchi (99,9 %), Uchquduq (96,6 %), Zarafshon sh. (91,5 %), Qiziltepa (87,0 %) va Karmana (33,8 %) tumanlarida.

Qurilishda - Konimex, Navbahor, Nurota, Tomdi, Uchquduq (100,0 %), Karmana (99,6 %), Navoiy sh. (92,2 %), Qiziltepa (89,9 %) tumanlarida.


Xizmatlarda - Tomdi (99,3 %), Konimex (98,9 %), Uchquduq (98,5 %), Navbahor (98,1 %), Qiziltepa (96,8 %) va Xatirchi (96,2 %) tumanlarida

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2020 yilning yanvar-martida






Kichik tadbirkor subyektlari tomonidan amalga oshirilgan eksport (tovar, xizmatlar)ning, jami eksport hajmidagi ulushi, %



2020-yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari mahsulotlar (tovar, xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushini Xatirchi, Tomdi, Nurota, Navbahor va Konimex tumanlarida (100,0 %), Uchquduq tumanida (99,7%), Zarafshon shahri va Qiziltepa tumanida (99,5 %), Karmana tumanida (82,4 %) eng past ko'rsatkichni Navoiy shahrida (2,1%) tashkil etdi.



Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (tovar, xizmatlar) importining, jami importdagi ulushi, % da



2020-yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (tovar, xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi Uchquduq, Tomdi, Nurota, Navbahor, Qiziltepa, Konimex va Karmana 100,0 %, Xatirchi 99,9 %, Zarafshon 10,4 %, Navoiy shahrida eng past ko'rsatkichni 6,4 %ni tashkil etdi.



2020-yilning yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi




Hududlar bo'yicha eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Karmana tumani (464,3 mlrd. so'm), Qiziltepa tumani (167,9 mlrd. so'm), Navoiy shahri (137,1 mlrd. so'm), Xatirchi tumani (128,3 mlrd. so'm) va Navbahor tumani (87,2 mlrd. so'm) ga to'g'ri keladi. Tomdi tumanida (9,0 mlrd. so'm) ushbu sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo'lib qolmoqda.






2020-yil yanvar-mart holatiga ko'ra jami sanoat mahsulotidagi kichik tadbirkorlikning hududlar bo'yicha ulushi, % da



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Navbahor, Nurota va Tomdi tumanlarida (100%), Xatirchi tumani (99,9%), Uchquduq tumani (96,6%), Zarafshon shahri (91,5%), Qiziltepa tumani (87,0%), Karmana tumani (33,8%), Konimex tumani (21,7%) va Navoiy shahrida (1,3%) kichik tadbirkorlikning ulushi past bo'lib qolmoqda.




2020-yilning yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati



Hududlar bo'yicha eng ko'p chakana tovar aylanmasi hajmi Navoiy shahrida (365,3 mlrd. so'm), Karmana tumani (223,3 mlrd. so'm), Qiziltepa tumani (160,2 mlrd. so'm), Xatirchi tumani (154,1 mlrd. so'm), Zarafshon shahri (119,9 mlrd. so'm), Navbahor tumani (71,5 mlrd. so'm) va Uchquduq tumani (55,4 mlrd. so'm) ga to'g'ri keladi.



2020-yilning yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati




Hududlar bo'yicha eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Navoiy shahri (138,5 mlrd. so'm), Qiziltepa tumani (92,1 mlrd. so'm), Karmana tumani (88,0 mlrd. so'm), Xatirchi tumani (50,8 mlrd. so'm), Navbahor tumani (47,3 mlrd. so'm), Nurota tumani (46,0 mlrd. so'm), hamda Zarafshon shahri (22,2 mlrd. so'm) da qayd etildi.





2020-yilning yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o'sish sur'ati




Hududlar bo'yicha eng ko'p xizmatlar hajmi Navoiy shahri (197,3 mlrd. so'm), Karmana tumani (142,8 mlrd. so'm), Qiziltepa tumani (93,5 mlrd.so'm), Zarafshon shahri (91,3 mlrd.so'm) va Xatirchi tumani (60,8 mlrd. so'm) ga tog'ri keladi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2020-yil I-chorak yakunlariga ko'ra, mikrofirma va kichik korxonalar tomonidan taqdim etilgan oxirgi yillik hisobotda mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushum mavjudligi bo'yicha tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi. Unda 779 ta respondentlar ishtirok etdi.


2020-yil I-chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan mikrofirma va kichik korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi*, % da




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning sanoatdagi ulushi - 18,9 % (147 ta), qurilishda – 10,8% (84 ta), qishloq o'rmon va baliq xo'jaligida – 8,1 % (63 ta), savdoda – 36,4 % (284 ta), xizmatlar sohasida – 25,8 % (201 ta).

**oxirgi yillik statistik hisobotga muvofiq mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar)ga ega bo'lgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha.*

2020-yil I-chorak bo'yicha oxirgi yillik hisobotda mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumga ega bo'lgan kuzatuvda ishtirok etgan mikrofirma va kichik korxonalarining hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda



2020-yil I-chorak bo'yicha oxirgi yillik mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumga ega bo'lgan kuzatuvda ishtirok etgan mikrofirma va kichik korxonalarining hududlar bo'yicha taqsimlanishi, % da




Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2020-yilning I-choragida, oxirgi hisobot yilida mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushum mavjudligi bo'yicha o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra o'tgan yilning shu davriga nisbatan qoniqarli iqtisodiy vaziyat qurilish sohasida 39,0 punktga, sanoat sohasida 32,1 punktga, xizmatlar sohasida 26,6 punktga, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi sohasida 25,7 punktga, savdo sohasida 21,7 punktga oshdi.

Shu bilan birga, o'tgan yil bilan taqqoslaganda iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholaydigan barcha faoliyat turlari bo'yicha korxonalar ulushining ko'payishi kuzatildi.

Joriy yilning I choragida, o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi sohasida 8,2 punktga, sanoat sohasida 5,3 punktga, xizmatlar sohasida 3,3 punktga iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalar ulushining ko'payishi kuzatildi.




Oxirgi hisobot yilida mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumga ega bo'lgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2019-2020-yillarda I-chorakdagi iqtisodiy vaziyatini baholash, % da




Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2020-yilning I-choragida, oxirgi hisobot yilida mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushum mavjudligi bo'yicha o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, o'tgan yilning mos davriga nisbatan yaqin uch oyda iqtisodiy vaziyatni yaxshilanishiga ishongan korxonalar ulushi deyarli barcha iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kamaygan.

Shu bilan birga, o'tgan yil bilan taqqoslaganda qurilish sohasida 11,9 punktga, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi sohasida 9,8 punktga, savdo sohasida 3,7 punktga, sanoat sohasida 3,7 punktga, xizmatlar sohasida 2,3 punktga yaqin uch oyda ularning iqtisodiy vaziyati o'zgarishsiz qolishiga ishongan korxonalarning ulushi o'sdi.




Oxirgi hisobot yilida mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumga ega bo'lgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2019-2020-yillarda I-chorakdagi iqtisodiy vaziyatini yaqin uch oyda baholanishi, % da






2020-yilning I-choragi yakunlariga ko'ra yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati kuzatildi, unda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 190 ta respondentlar qatnashgan. Shundan sanoat korxonalari - 32 ta (ishtirok etgan respondentlarning umumiy sonining 16,9%), qurilish korxonalari – 9 ta (4,7%), savdo korxonalari – 92 ta (48,4%) va xizmat ko'rsatish korxonalari – 36 ta (18,9%), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi korxonalari – 21 ta (11,1%).

2020-yil I-chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, % da






2020-yil I-chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarining hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda



2020-yil I-chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarining hududlar bo'yicha taqsimlanishi, % da




Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra, 2020-yilning I-choragida o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslaganda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalar ulushi deyarli barcha faoliyat turlari bo'yicha pasayishi kuzatildi.

Shu bilan birga, joriy yilning I-choragida o'tgan yilning shu davriga nisbatan iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholaydigan deyarli barcha faoliyat turlari bo'yicha korxonalar ulushining o'sishi kuzatildi.

Joriy yilning I-choragida o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda sanoat sohasida 7,5 punktga, xizmatlar sohasida 6,9 punktga, iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalar ulushining pasayishi kuzatildi.




2019-2020-yillar I-chorakdagi yangi tashkil etilgan korxonalar iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



Kichik korxonalar va mikrofirmalarning faoliyatini kuzatuv natijalariga ko'ra, yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatini kuzatuv natijalariga ko'ra, 2020-yilning I-choragini o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda, yaqin uch oy ichida iqtisodiy vaziyatni yaxshilashga ishongan korxonalar ulushi deyarli barcha iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kamaygan.

Shuningdek, o'tgan yil bilan taqqoslaganda yaqin uch oydagi iqtisodiy vaziyat o'tgan yilga nisbatan o'zgarmaydi deb hisoblagan korxonalar ulushi xizmatlar sohasida 10,4 punktga, qurilishda 45,6 punktga, savdoda 7,4 punktga, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi sohasida 16,1 punktga, sanoat sohasida 21,1 punktga o'sishi kuzatildi.



Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari,
tadbirkorlikni rivojlantirish statistikasi bo'limi

Tel. (79) 223-57-61